

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS  
INSTITUTI

"REAL IQTISODIYOT" KAFEDRASI

"Xizmatlar sohasida tarkibiy  
o'zgarishlarni amalga oshirishning  
zamonaviy texnologiyalari"  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

## **MATERIALLARI TO'PLAMI**

2025-yil 25-mart

I bo'lim

SAMARQAND-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI**



**“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni  
amalga oshirishning zamonaviy  
texnologiyalari”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2025-yil 25-mart**

**I bo‘lim**

**SAMARQAND-2025**

**UO'K: 338.46**

**X 59**

**KBK: 65.9(2)30**

Xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2025-yil 25-mart. Samarqand, SamISI, 2025. – 254 bet.

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

**Z.S.Artikov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Nashr uchun mas'ullar:**

**D.X.Aslanova** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

**G.M.Shadiyeva** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**B.A.Abdukarimov** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

**T.S.Sharipov** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

**Sh.O.Quvandiqov** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

**Sh.A.Sultonov** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

**R.J.Qurbonova** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**U.N.Nurmorodov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Z.I.Abdullayeva** – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

**B.O.Do'stmatov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**A.P.Xazratov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**L.U.Maxmudov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Z.K.Raximov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

**Sahifalovchilar:**

**M.E.Erdonov** – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

**Sh.N.Mirzayeva** – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

**S.B.Iskandarov** – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

**A.I.Asrorov** – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

**V.A.Fozilov** – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalarni yaxshilashning nazariy metodologik masalalari, xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning muammo va yechimlari, xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalardan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda foydalanish, xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalarini yaxshilash dasturlari va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish masalalari, xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashda investitsion va innovatsion masalalar bo'yicha nazariy hamda amaliy tavsiyalar o'rin olgan.

Ushbu to'plamda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrlar va iqtidorli talabalarning xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalariga bag'ishlangan maqola va tezislari o'rin olgan.

To'plam materiallaridan iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat idoralari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o'z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

В материалах научно-практической конференции рассмотрены теоретические и методические вопросы осуществления структурных изменений в сфере услуг и совершенствования современных технологий, проблемы и решения использования современных технологий при реализации структурных изменений в сфере услуг, реализации структурных изменений в сфере услуг и использования современных технологий в социально-экономическом развитии регионов, вопросы разработки программ и стратегии развития реализации структурных изменений в сфере услуг, программы совершенствования современных технологий в сфере услуг. теоретические и практические рекомендации по инвестиционно-инновационным вопросам применения современных технологий реализации изменений.

В сборнике собраны статьи и тезисы профессоров, преподавателей, докторантов, независимых исследователей, магистров и талантливых студентов о современных технологиях реализации структурных изменений в сфере услуг.

Материалы сборника могут использовать бакалавры, магистры, докторанты, независимые исследователи, сотрудники государственных органов и специалисты данной области, обучающиеся в области экономики.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific and practical conference include theoretical and methodological issues of implementing structural changes and improving modern technologies in the services sector, problems and solutions of using modern technologies in implementing structural changes in the services sector, implementing structural changes in the services sector and using modern technologies in the socio-economic development of regions, issues of developing programs and development strategies for improving modern technologies for implementing structural changes in the services sector, theoretical and practical recommendations on investment and innovation issues in applying modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

This collection contains articles and theses by professors, doctoral students, independent researchers, masters and talented students on modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

The materials in the collection can be used by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying in the field of economics.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented therein. Some of their views may not reflect those of the organizational group.

**ISBN: 978-9910-702-99-0**

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025.

© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2025.

# ISSUES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE CONDITIONS OF AN INNOVATIVE ECONOMY

**Abdumalik Bektemirov** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.

**Azizbek Abduraxmonov** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti  
[azizabdurahmonov65@gmail.com](mailto:azizabdurahmonov65@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqola innovatsion iqtisodiyot sharoitida xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan. Innovatsion iqtisodiyot yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlar orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, unda xorijiy sarmoyalar muhim rol o‘ynaydi. Maqolada xorijiy sarmoyalarni jalb qilish masalalari hamda orijiy investitsiyaning mohiyati va ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotida bir qancha muhim funksiyalarni bajarishiga oid dolzarb muammolar tahlil qilingan.

Shuningdek, ushbu maqola innovatsion iqtisodiyot sharoitida xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha ba‘zi ilmiy tadqiqot va amaliyot uchun dolzarb muammolarni yoritadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** byurokratik, intellektual mulk, moslashuvchan mehnat tizimi, iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya sektorini rivolantirish, portfel investitsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya, milliy valyuta, likvidlik, modernizatsiya, diversifikatsiya, raqobatbardoshlik, soliq tushumlari, texnologik transfer.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья посвящена вопросам повышения эффективности иностранных инвестиций в условиях инновационной экономики. Инновационная экономика направлена на обеспечение экономического роста за счет новых технологий и научных достижений, в которых важную роль играют иностранные инвестиции. В статье рассматриваются вопросы привлечения иностранных инвестиций, а также характер и значение иностранных инвестиций. Анализируются актуальные проблемы, связанные с выполнением ряда важных функций в экономике страны-реципиента иностранными инвестициями.

Также данная статья проливает свет на некоторые актуальные вопросы научных исследований и практики по повышению эффективности иностранных инвестиций в условиях инновационной экономики.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** бюрократия, интеллектуальная собственность, гибкая система труда, либерализация экономики, развитие финансового сектора, портфельные инвестиции, прямые инвестиции, национальная валюта, ликвидность, модернизация, диверсификация, конкурентоспособность, налоговые поступления, трансфер технологий.

**ANNOTATION:** This article is devoted to the issues of increasing the efficiency of foreign investments in the conditions of an innovative economy. An innovative economy is aimed at ensuring economic growth through new technologies and scientific achievements, in which foreign investment plays an important role. The article discusses the issues of attracting foreign investment and the essence and significance of foreign investment. The current problems related to the performance of a number of important functions by foreign investments in the economy of the host country are analyzed.

This article also highlights some current problems for scientific research and practice in increasing the efficiency of foreign investments in the conditions of an innovative economy.

**KEYWORDS:** bureaucratic, intellectual property, flexible labor system, economic liberalization, financial sector development, portfolio investment, direct investment, national

currency, liquidity, modernization, diversification, competitiveness, tax revenues, technological transfer.

## **KIRISH.**

Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyot mintaqalar va davlatlar uchun raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omiliga aylangan. Innovatsion iqtisodiyot yangi texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va ijodkorlikka asoslangan bo'lib, ushbu jarayonlarni moliyalashtirish uchun xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Xorijiy sarmoyalar innovatsion loyihalarga moliyaviy resurslar taqdim etib, texnologik infratuzilmani rivojlantirishga va yangi ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil Toshkent shahrida Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdida so'zlagan nutqida: “So'nggi besh yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 24 foizga, sanoat – 34 foizga, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o'sgani biz qo'lga kiritgan yuqori natijalardan dalolat beradi” deb ta'kidlagani ham sohada rivolanishlardan dalolat beradi<sup>40</sup>.

## **TADQIQOT METODOLOG IYASI**

Tadqiqotlar davomida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan.,

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Qulay sarmoyaviy muhitni yaratish ko'plab mamlakatlar uchun asosiy strategik ustuvor vazifa bo'lsa-da, ko'pincha bu jarayonga to'sqinlik qiladigan qator kamchiliklar va to'siqlar mavjud. Qulay investitsiya muhitini yaratish va yaxshilashdagi asosiy kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

**byurokratik to'siqlar:** haddan tashqari byurokratiya va biznesni ro'yxatdan o'tkazishning murakkab tartiblari potentsial investorlarni to'xtatib qo'yishi va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin;

**qonunchilikdagi o'zgarishlarni oldindan aytib bo'lmaslik:** qonun hujjatlariga va soliq siyosatiga oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirishlar beqarorlik va investorlar uchun xavfni oshirishi mumkin;

**intellektual mulkni himoya qilishning yetarli emasligi:** intellektual mulkni himoya qilishning yetarli emasligi mahsulotlarni nusxalash va qalbakilashtirish tufayli raqobatdosh ustunliklarni yo'qotishdan qo'rqqan investorlarni tushkunlikka solishi mumkin;

**korruptsiya:** hukumatdagi korruptsiyaning yuqori darajasi adolatli va ochiq ishbiarmonlik muhitiga to'sqinlik qilishi, chet ellikinvestorlarning ishtiyoqini kamaytirishi mumkin;

**infratuzilmaning yetarli emasligi:** rivojlangan transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasining yetishmasligi investitsiya loyihalarini amalga oshirishni sekinlashtirishi va xarajatlarni ko'paytirishi mumkin;

**moliyaviy manbalardan foydalanishdagi qiyinchiliklar:** kreditlar va investitsiya fondlaridan foydalanishning cheklanganligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va kapital jalb qilishni qiyinlashtirishi mumkin;

---

<sup>40</sup> Prezident Sh.Mirziyoyevning 08.09.2021 yilda Toshkent shahrida tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 10-syezdidagi so'zlagan nutqi - <https://nsp.gov.uz/president?watch=3>

***inson kapitalining yetarli darajada rivojlanmaganligi:*** ishchi kuchining past darajadagi bilimi va malakasi yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish davlat, jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, huquqiy tizimni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va infratuzilmani rivojlantirish ana shu to‘siqlarni bartaraf etish va investorlar uchun yanada qulay muhit yaratishga xizmat qiladigan chora-tadbirlarning bir qismidir.

Xorijiy sarmoyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy investorlarning daromad olish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotiga kapital qo‘yishidir. Chet el investitsiyalari turli shakllarda bo‘lishi mumkin: to‘g‘ridan-to‘g‘ri (biznesda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish yoki kompaniyaning aksiyalarini sotib olish) yoki portfel (kompaniya boshqaruviga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasdan aksiyalar yoki obligatsiyalarni sotib olish).

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotida bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Kapitalning kirib kelishi, bu – moliyaviy resurslarning mamlakat iqtisodiyotiga chetdan kirib kelishi jarayoni bo‘lib, kapital oqimi xorijiy investorlar tomonidan mablag‘larni oluvchi mamlakatdagi turli aktivlar va loyihalarga qo‘yishda namayon bo‘ladi.

Xorijiy kapital kirib kelishining ahamiyati quyidagilarda namayon bo‘ladi: iqtisodiy o‘shishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Kapitalning kirib kelishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va infratuzilmani yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha moliyaviy resurslarni beradi;

likvidlikni oshiradi. Moliya bozorlariga kapitalning kirib kelishi likvid aktivlar hajmini oshiradi, bu esa kreditlashning rivojlanishini rag‘batlantiradi va mahalliy kompaniyalar uchun qarz olish xarajatlarini kamaytiradi;

milliy valyutaning mustahkamlaydi. Kapitalning sezilarli oqimi xorijiy investorlar tomonidan milliy valyutaga bo‘lgan talabni oshirish orqali uni mustahkamlashga yordam beradi;

valyuta zahiralarning ko‘payishiga olib keladi. Valyuta oqimi, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar orqali mamlakatning valyuta zaxiralarini ko‘paytirishi, tashqi iqtisodiy zarbalarga chidamliligini oshirishi mumkin;

milliy valyuta qadrini mustahkamlaydi. Kapitalning sezilarli oqimi xorijiy investorlar tomonidan milliy valyutaga bo‘lgan talabni oshirish orqali uni mustahkamlashga yordam beradi;

valyuta zahiralarning ko‘paytiradi. Valyuta oqimi, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar orqali mamlakatning valyuta zaxiralarini ko‘paytirishi, tashqi iqtisodiy zarbalarga chidamliligini oshirishga yordam beradi.

Demak, xorijiy kapitalning kirib kelishi yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va umumiy iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga yo‘naltirilishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar odatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarni

modernizatsiya qilish bilan birga keladi. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi.

Ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi - bu iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining oshishiga olib kelishi bilan birga infratuzilmaning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda xorij sarmoyasi asosiy o'rin tutib, korxonalar rivojiga, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- yangi korxonalarni tashkil etish;
- mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish;
- texnologik transfer;
- ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish.

3. Texnologiya va bilimlarni uzatish. Xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kelishadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

Texnologiya va bilim transferi – bu, ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar va boshqaruv tajribasini bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish jarayonidir. Chet el investitsiyalari kontekstida transfer xorijiy kompaniyalar o'zlarining ilg'or texnologiyalari va operatsion amaliyotlarini qabul qiluvchi mamlakatga joriy etganda, mahalliy korxonalarining mahsuldorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam berganda sodir bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar orqali texnologiya va bilim transferining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish texnologiyalarining transferi;
- xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- boshqaruv va tashkiliy bilimlarni uzatish;
- qo'shma korxonalar va sheriklik;
- sifat standartlarini joriy etish.

4. Soliq tushumlarining ortishi. Boshqa davlatda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar soliq to'laydi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshiradi.

Soliq tushumlarining ko'payishi xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakatga asosiy iqtisodiy ta'siridan biridir. Mahalliy iqtisodiyotga sarmoya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar korxonalar, ish o'rinlari va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi, bu esa soliq bazasining o'sishiga va davlat daromadlarining oshishiga olib keladi.

Chet el investitsiyalarining soliq tushumlarini oshirishga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

korxonalar foydasiga solinadigan soliqlar bo'yicha. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar o'z faoliyatidan olingan foydadan korporativ soliq to'laydi. Yangi korxonalarni tashkil etish, ayniqsa, kompaniyalar yaxshi moliyaviy natijalarga erishgan taqdirda, daromad solig'i tushumlarini oshiradi;

xodimlar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha. Xorijiy investorlar tomonidan yangi ish o'rinlarining yaratilishi mahalliy aholining rasmiy ish bilan ta'minlanishiga va daromad solig'ini to'lay boshlashiga olib keladi. Bandlik va ish

haqi darajasining oshishi jismoniy shaxslardan soliq tushumlarining oshishiga yordam beradi;

qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va aksiz solig'i bo'yicha. Chet el korxonalaridan yaratilgan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), shuningdek, ayrim toifadagi mahsulotlarga aksiz solig'i bo'yicha soliqqa tortiladi. Bu davlat daromadlarini yanada oshiradi;

mulk va yer soliqlari bo'yicha. Zavod va korxonalar qurayotgan xorijiy kompaniyalar yer va ko'chmas mulkni sotib oladi yoki ijaraga oladi, bu esa mulk yoki yer uchun tegishli soliqlarni to'lashni nazarda tutadi, bu ham mamlakat byudjetini to'ldiradi;

bojxona to'lovlari bo'yicha. Xorijiy kompaniyalar ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, xomashyo yoki butlovchi qismlarni olib kirsam, ulardan bojxona to'lovlari talab qilinadi, bu esa byudjetga qo'shimcha daromad manbaiga aylanadi.

5. Xalqaro aloqalarni mustahkamlash. Chet el investitsiyalari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilishga, shuningdek, bir iqtisodiy sherikga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi

Xalqaro aloqalarni mustahkamlash - bu mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirish jarayonidir. Bu jarayonda xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi, chunki u transmilliy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini rag'batlantiradi, xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvga yordam beradi va diplomatik munosabatlarni yaxshilaydi. Xalqaro aloqalardagi chet el investitsiyalarining o'rnini quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

iqtisodiy hamkorlik;

tashqi savdoning kengayishi;

investitsiya shartnomalari va huquqiy asoslari;

diplomatik yaqinlashuv;

madaniy va tajriba almashish;

xalqaro moliyaviy munosabatlar.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra quyidagi xulosa va takliflarni berish maqsadga muvofiq:

1. Siyosiy barqarorlik va oshkorlik investorlarda ishonch hissini uyg'otadi va bu uzoq muddatli sarmoyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi.

2. Shaffoflik va ochiqlikni rivojlantirish investorlarning ishonchini qozonish uchun shart-sharoit yaratadi hamda iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Ishbilarmon doiralar bilan muloqot nafaqat sarmoya uchun yanada qulay muhit yaratish, balki davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

4. Xorijiy investitsiyalar qo'shimcha moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlaydi, bu ko'pincha ichki kapital taqchil bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim ahamiyatga ega;

5. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar odatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish bilan birga keladi;

6. Xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kelishadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi;

7. Boshqa davlatda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar soliq to'laydi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshiradi;

8. Xorijiy investitsiya qabul qiluvchi mamlakat xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Агафонов А.А. “Проектное финансирование как форма инвестиционного кредитования малого бизнеса” / Агафонов А.А. // Экономика и предпринимательство. - 2014.- №5- ч.1.- С. 711

2. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2014.

3. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: “Moliya”, 2010.

4. Karlibayeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2011

5. 1. Alfaro, Laura, Sebnem Kalemlı-Ozcan, Areendam Chanda, and Selin Sayek. “Does Foreign Direct Investment Promote Growth? Exploring the Role of Financial Markets on Linkages.” *Journal of Development Economics* 91, no. 2 (March 2010): 242–256. (Also Harvard Business School Working Paper No. 07-013 and NBER Working Paper No. w12522.) [View Details](#)

### **O'zbekistonda tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni**

**"Hamkorbank" ATB Samarqand viloyat hududiy  
boshqarmasi boshlig'i A. A. Butayev**

**Tel: 933307555**

**E-@mail: butayevahror@gmail.com**

**Annotatsiya:** Tezisdagi O'zbekistonda tijorat banklarining mikromoliya, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish kabi yo'nalishlar orqali aholining daromadlarini oshirishga va ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qanday hissa qo'shayotganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirishdagi samaradorligini oshirish uchun davlat va banklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mikromoliya va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, kambag'allikni qisqartirish, mikromoliya, kichik va o'rta biznes, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy dasturlar, kreditlar foiz stavkalari, O'zbekiston iqtisodiyoti, davlat va banklar hamkorligi.

**Аннотация:** В диссертации показано, как коммерческие банки Узбекистана способствуют увеличению доходов населения и улучшению его социально-экономического положения посредством микрофинансирования, поддержки малого и среднего бизнеса, а также финансирования сельского хозяйства. Также в целях повышения

<b>S.A.Maxmudov</b>	<b>Rivojlangan mamlakatlar tajribasida onlayn savdo xizmatlarini tartibga solish va rivojlantirish mexanizmlari</b>	182
<b>J.Nematov</b>	O'zbekistonda agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash samaradorligini oshirish	187
<b>A.Б.Таниев</b>	Туристтик манзараларининг иқтисодий ривожланишга таъсири ва барқарор бошқарув стратегиялари	190
<b>A. A. Butayev</b>	<b>Kambag'allikni qisqartirishning global tajribalari</b>	194
<b>A.A.Yuldashev M.O.Odilov</b>	Ta'minot zanjirlarini boshqarishda bulutli texnologiyalardan foydalanishni afzalliklari	197
<b>V SHO'BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDA INVESTITSION VA INNOVATSION MASALALAR.</b>		
<b>G.M.Shadieva S.M.Turapov</b>	Cybersecurity in the digital age: safeguarding Business assets	202
<b>A.Bektemirov A.Abduraxmonov</b>	Issues of increasing the efficiency of foreign investments in the conditions of an innovative economy	206
<b>A. A. Butayev</b>	O'zbekistonda tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni	211
<b>B.O.Dusmatov N.B.Jumayeva</b>	Innovations in customer experience: enhancing engagement and loyalty	215
<b>B.O.Dusmatov D.N.Qodirova</b>	Issues of digitalization of entrepreneurship based on innovative technologies	219
<b>O.Y.Ashurova D.Sherqulov</b>	O'zbekistonning investitsion jozibadorligi	223
<b>A.G. Ochilova</b>	Social and humanitarian investments of germany into uzbekistan for the last 10 years	226
<b>S. O.Xamroyeva S.A.Xaydarov</b>	Turizmni rivojlantirishda innovatsion mobil ilovalar yaratish va ulardan samarali foydalanish	230
<b>A.M.Джаббаров</b>	Савдо корхоналарида қўшилган қиймат солиғини ҳисоблашнинг долзарб масалалари	234
<b>X.A.Ulashev</b>	O'zbekistonda investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.	237
<b>Ш.Н.Мирзаева А.Х.Курбонов</b>	Конкуренция и инновации в частном предпринимательстве	241
<b>J.T.Togayeva</b>	Korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasini baholashning metodologik jihatlari	244

# **“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2025-yil 25-mart**

**“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,  
Samarqand - 2025.**

**ISBN: 978-9910-702-99-0**

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)  
Nashrga ruxsat etildi: 24.03. 2025 y.

© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti  
Samarqand – 2025 y.



25.03. 2025 y. chop etildi  
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Ofset qog‘oz.  
“Times New Roman” garnituras.  
Nashr bosma tabog‘i 15.87  
Buyurtma № 0011A/25. Adadi 50 nusxa

---

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.**

**LICENSE № 025316.**

**REESTR № X-119112.**

**Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.**

ISBN: 978-9910-702-99-0



9789910702990